



UDK:911.3:911.37 (911.372.7)

Murodjon ATAJOV,
Andijon davlat universiteti dotsenti
E-mail: murodatajonov1980@gmail.com

Farg‘ona davlat universiteti dotsenti, PhD Z.Madaminov taqrizi asosida

TERRITORIAL STRUCTURE OF RURAL SETTLEMENTS OF THE FERGANA VALLEY

Annotation

The growth of rural population, its location, the formation and development of village centers in the Fergana Valley have their own characteristics. In this study, the number of rural population, its location and density were analyzed in the valley regions. The territorial composition of rural settlements according to the number of inhabitants was studied on the basis of statistical data.

Keywords. Population, population location, hydrography, economic and social geography, rural areas, rural districts, rural settlements, population density, classification, typology, urbanization.

ТЕРРИТОРИАЛЬНАЯ СТРУКТУРА СЕЛЬСКИХ НАСЕЛЕННЫХ ПУНКТОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

Аннотация

Рост численности сельского населения, его размещение, формирование и развитие сельских населенных пунктов в Ферганской долине имеют свои особенности. В данном исследовании проанализированы численность сельского населения, его размещение и плотность в областях долины. Территориальная структура сельских населенных пунктов по численности населения изучен на основе статистических данных.

Ключевые слова. Население, размещение населения, гидрография, экономическая и социальная география, сельские территории, сельские районы, сельские населенные пункты, плотность населения, классификация, типология, урбанизация.

FARG‘ONA VODIYSI QISHLOQ AHOI PUNKTLARINING HUDUDIY TARKIBI

Annotatsiya

Farg‘ona vodiysida qishloq aholisi sonining o‘shishi, uning joylanishi, qishloq punktlarining shakllanishi hamda rivojlanishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Mazkur tadqiqotda vodiy viloyatlarida qishloq aholisi soni, uning joylashuvi va zichligi tahlil qilingan. Qishloq aholi punktlarining aholi soniga ko‘ra hududiy tarkibi statistik ma‘lumotlar asosida o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar. Aholi soni, aholi joylashuvi, gidrografiya, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, qishloq joylar, qishloq tumanlari, qishloq aholi punktlari, aholi zichligi, klassifikatsiya, tipologiya, urbanizatsiya.

Kirish. O‘zbekiston qishloq joylarida mamlakat jami aholisining 49 foizi yashab kelmoqda. Ayni vaqtda, qishloq aholisi sonining o‘shishi, uning joylanishi, qishloq punktlarining hududiy tarkibi o‘ziga xos geografik xususiyatlarga ega ekanligi hamda respublikamizning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida qishloq joylar muhim ahamiyat kasb etishini ko‘pgina olimlar o‘z tadqiqotlarida alohida ta’kidlab o‘tgan. Hududlarda ijtimoiy sohalarini jadal rivojlantirish, ayniqsa qishloq joylar ijtimoiy taraqqiyotini yuksaltirish, qishloq aholisi hayot sharoitlarini yaxshilash, ijtimoiy infrastruktura sohalarini hududiy tashkil etilishini optimallashtirish masalalariga alohida e‘tibor berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida “...qishloq aholi punktlarining me‘moriy qiyofigini tubdan yangilash, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi hamda ijtimoiy soha obyektlarini barpo etish va shu asosda aholining turmush madaniyatini yuksaltirish va dunyoqarashini kengaytirish” yuzasidan ham muhim vazifalar belgilab berilgan [1]. Bu borada, jumladan, mamlakat hududining 4 foizini egallagan holda aholisining 28,6 foizini o‘zida mujassamlashtirgan hamda zichlik ko‘rsatkichlari eng yuqori bo‘lgan Farg‘ona vodiysi qishloq joylarida aholi turmush sharoitlari va undagi hududiy tafovut, xususiyat va muammolarini o‘rganishga yo‘naltirilgan iqtisodiy-ijtimoiy geografik tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qishloq aholisi, aholi punktlari va u bilan bog‘liq ijtimoiy-geografik muammolarini o‘rganishning nazariy-uslubiy asoslari xorijlik olimlar Vidal de la Blash, V. Kristaller, A. Leshlarning ishlarida keltirilgan. Shuningdek, MDH mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi vakillari N. N. Baranskiy, Yu. G. Saushkin, S. A. Kovalyov, V. A. Maksimov, A. I. Alekseyevlar tomonidan o‘rganilgan[3].

O‘zbekistonda esa qishloq joylar va uning iqtisodiy-ijtimoiy geografik jihatlari dastlab R. Valiyeva, E. Tashbekov, G.R.Asanov, O. B. Ota-Mirzayev, A. S. Soliyev, A. A. Qayumovlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, keyinchalik professor A.S.Soliyev ilmiy maktabi vakillari Z. N. Tojiyeva, Yu. I. Ahmadaliyev, M. I. Nazarov, R. Y. Mahamadaliyev, J. P. Musayev, A.U. Sattorov, Sh. B. Qurbonovlar tomonidan tadqiq etilgan[7].

Tadqiqot metodologiyasi. Qishloq joylar murakkab tabiiy-ijtimoiy-iqtisodiy tizim bo‘lib, ularni geografik jihatdan tadqiq etishda quyidagi asosiy metodologik masalalarga e‘tibor qaratiladi. Qishloq joylarning tarkibi va chegaralarini aniqlash, ularning shaharlar bilan o‘zaro bog‘liq holda tadqiq etish, bajaradigan vazifalarini hozir va kelajakda bir-birini to‘ldirib borishini tahlil qilish, ishloq joylarni geografik jihatdan o‘rganishda iqtisodiy, sotsial va ekologik yo‘nalishlarni uyg‘unlashtirish va takomillashtirish, qishloq aholi punktlarini tip va klasslarga ajratish va ularning kelgusida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishlarini tahlil etish.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston aholisi hududiy joylashuvi va zichlik ko'rsatkichlaridagi tafovutlar hududlarning tabiiy-iqlimiy, yer-suv resurslari, transport yo'llari kabi qator omillar ta'sirida yuzaga kelgan. Aholi qadimdan sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan, shuningdek, aholining yashashi va mehnat qilishi nuqtai nazardan qulayliklarga ega bo'lgan voha va vodiylarda zich joylashgan. Ana shunday hududlar sirasiga Chirchiq-Ohangaron, Farg'ona, Zarafshon, Surxon-Sherobod vodiysi, Xorazm va Qarshi vohalarini kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi hududining tabiiy sharoiti, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarining xilma-xilligi aholi joylashuvi va uning zichlik ko'rsatkichlariga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Jumladan, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra mamlakat bo'yicha aholi joylashuvining o'rtacha zichligi 1 km² va 83 kishidan iborat bo'lgan holda, u Navoiy viloyatida 10 kishidan Andijon viloyatida 805 kishiga farq qiladi[10]. Shu bilan birga, aholining yashashi, dehqonchilik qilishi uchun noqulay bo'lgan hamda gidrografik obyektlar bilan yetarli ta'minlanmagan hududlarda aholi siyrak joylashgan bo'lib, bu yerda aholi zichligining respublika o'rtacha ko'rsatkichidan past ko'rsatkichlar kuzatiladi. Ana shunday hududlar sirasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi (12 kishi), Navoiy (10 kishi), Buxoro (51 kishi), Jizzax (72 kishi) viloyatlarini kiritish mumkin. Ammo, so'nggi vaqtlarda mamlakatimizda aholi sonining o'sib borishi (2025 yil 1 yanvar holati bo'yicha 37543,2 ming kishi), ishlab chiqarish jarayonlarining rivojlanishi ilgari aholi siyrak yashaydigan hududlarda ham zichlik ko'rsatkichlarining ortishiga sabab bo'ldi. Bunday vaziyat asosan qishloq ho'jaligi maqsadlarida o'zlashtirilgan Mirzacho'l, Qarshi cho'llari va Markaziy Farg'onada kuzatildi.

Farg'ona vodiysida aholining qadimdan yashab kelganligi, gidrografik to'rining yaxshi shakllanganligi aholining zich joylashuviga zamin yaratgan. Shu bilan birga, aholining aksariyat qismi yirik qishloq xo'jaligi yerlari, transport va irrigatsiya tizimlari rivojlangan hududlarda istiqomat qiladi[4]. Binobarin, mazkur hududlarda zichlik ham yuqori.

Ma'lumki, Farg'ona vodiysi aholining zichlik ko'rsatkichlari bilan respublikaning boshqa hududlaridan keskin ajralib turadi. Masalan, bu ko'rsatkich Andijon viloyatida 805 kishiga, Farg'ona viloyatida 613 kishiga, Namangan viloyatida 420 kishiga to'g'ri keldi. Farg'ona vodiysi viloyatlarida aholining joylashuviga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida gidrografik obyektlar, ya'ni suv manbalarini alohida ta'kidlash zarur. Xususan, Farg'ona viloyati aholi joylashuviga Sirdaryo, So'x, Isfara, Isfayramsoy, Andijon viloyatida Qoradaryo, Moylisoy, Oqbo'ya, Aravonsoy, Shahrixonsoy, Namangan viloyatida Norin, Kosonsoy, Chortoqsoy, Namangansoy, G'ovasoy daryolari katta ta'sir ko'rsatgan va aynan ushbu gidrografik obyektlar havzalarida aholining zichligi yuqori ko'rsatkichlarga ega[7]. Shu o'rinda, qishloq xo'jaligi intensiv rivojlanish xususiyatiga ega bo'lgan ba'zi qishloq tumanlarida aholi zichligi 800-900, hattoki 1000 kishidan ortadi. Ular qatoriga Andijon viloyatining Asaka (1341), Shahrixon (1142), Oltinko'l (925), Izboskan (930), Buloqboshi (866), Paxtaobod (818) tumanlarini, Namangan viloyatining Namangan (985), To'raqo'rg'on (928), Norin (852), Uychi (792), Farg'ona viloyatining Toshloq (924), Uchko'prik (914), Buvayda (902) tumanlarini kiritish mumkin. Aksincha, aholi zichligining past ko'rsatkichlari Andijon viloyatining Ulug'nor (153 kishi), Namangan viloyatining Pop (82 kishi), Mingbuloq (189 kishi) tumanlarida kuzatiladi. O'z navbatida, yangi o'zlashtirilgan hududlarda tashkil etilgan Andijon viloyatining Bo'ston, Farg'ona viloyatining Yozyovon tumanlari aholi zichligi ortib borayotganligini statistik raqamlar ko'rsatib turibdi. Bugungi kunda mazkur tumanlarda har kv.km. maydonga mos ravishda 398 va 295 kishi to'g'ri keladi[10].

Statistik ma'lumotlar ko'rsatishicha mamlakatimizda qishloq aholi soni 18403,8 ming kishini tashkil etadi (jami aholining 49 foizi). Bu ko'rsatkich Farg'ona viloyatida 1790,7 ming kishi (viloyat aholisining 43 foizi), Andijon viloyatida 1654,2 ming kishi (47,8 foiz), Namangan viloyatida 1099,6 ming kishi (35 foiz)ga teng[10].

1-jadval

Farg'ona vodiysi qishloq aholisi va uning joylashuvi (2025 yil 1 yanvar holatiga)

| № | Viloyatlar | Qishloq aholisi soni, ming kishi | Jami aholiga nisbatan, foizda | QAP soni | Har bir QAP ga to'g'ri keluvchi o'rtacha aholi soni, kishi |
|---|---------------------|----------------------------------|-------------------------------|----------|--|
| 1 | Farg'ona | 1790,7 | 43,0 | 1000 | 1790 |
| 2 | Andijon | 1654,2 | 47,8 | 455 | 3635 |
| 3 | Namangan | 1099,6 | 35,0 | 388 | 2834 |
| | Respublika bo'yicha | 18403,8 | 49,0 | 10987 | 1675 |

Jadval O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Qadimdan rivojlanib kelgan sug'orma dehqonchilik bu yerda joylashgan qishloqlarga hayot bag'ishladi va qishloqlar aholisi soniga, aholi punktlarining zich joylashishi va ular orasidagi masofaning ham yaqin bo'lishiga sabab bo'lgan.

Ma'lumki, qishloq aholi punktlari aholi soniga va bajaradigan funksiyalariga ko'ra turli guruhlarga ajratiladi. Aksariyat hollarda qishloq aholi punktlari aholi soniga ko'ra 500 kishigacha (mayda); 500-1000 kishigacha (kichik); 1000-3000 kishigacha (o'rta); 3000-5000 kishigacha (katta); 5000 va undan yuqori (yirik) bo'lgan guruhlarga bo'linadi[6]. Aholi soni 3000-5000 kishigacha, va 5000 va undan ko'p bo'lgan katta va yirik qishloqlar aholi zich yashaydigan hududlarda, voha va vodiylarda, jumladan Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlarida tarkib topgan. Ayni vaqtda mazkur viloyatlarda katta va yirik qishloqlarning ulushi ulardagi jami qishloq aholi punktlarining 1/5 qismini tashkil etadi.

Ma'lumki, aholi joylashuvi tahlilida mamlakat yoki hududlarning maydon ko'lami katta ahamiyat kasb etadi. Bundan ko'rinadiki, yuqori zichlikka ega bo'lgan viloyatlar maydoni uncha katta emas, yoki aksincha. Shu bilan birga, hududlarda aholining joylashuvi yirik shaharlar hamda transport yo'llari, gidrografik obyektlardan uzoqlashgan sari kamayib boradi. Buni Farg'ona, Marg'ilon, Qo'qon, Namangan, Andijon shaharlari atroflarida kuzatish mumkin[2].

Aholi joylashuvi va zichligiga hududlarga xos bo'lgan tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'siri yuqori. Farg'ona vodiysi sharoitida yer va ayniqsa, suv resurslari muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga sabab, aholi joylashuvi nafaqat yo'llar va shaharlar, o'z navbatida gidrografik to'r bilan ham chambarchas bog'liq. Aholining bunday joylashuv xususiyatini Farg'ona vodiysiga xos bo'lgan xususiyat sifatida ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Shu bilan birga, bunday qishloqlar asosan qadimdan sug'orma dehqonchilik rivojlangan hududlarga to'g'ri kelib, mazkur hududlarda qishloqlar orasidagi masofa yaqin yoki zich joylashgan. Masalan, Andijon viloyatida qishloqlar orasidagi o'rtacha masofa 2 km. ni tashkil etsa, bu miqdor Farg'ona, Namangan, Toshkent va Xorazm viloyatlarida 3,5-4 km.ga to'g'ri keladi.

Qishloq aholi punktlarining hududlar bo'yicha taqsimlanishidagi farqlarning vujudga kelishiga, eng avvalo, ularning tabiiy sharoiti, sug'orish manbalariga nisbatan joylashganligi katta ta'sir ko'rsatgan. Aytish joizki, Farg'ona vodiysi viloyatlarida o'rta, katta va yirik qishloqlar ko'pchilikni tashkil etadi. Jami qishloq aholi punktlari (QAP) 1843 tani tashkil etgani holda, ularning 91 (jami QAP ga nisbatan 4,9 foiz) tasi aholisi soni 500 kishigacha bo'lgan mayda qishloqlar xissasiga to'g'ri keladi. Mayda qishloqlar asosan Andijon viloyatining Bo'ston (tumandagi barcha qishloqlarning 16,2 foizi), Farg'ona viloyatining Dang'ara (18,1 foiz), Buvayda (13,6 foiz), Beshariq (13,5), Rishton (12,2 foiz) tumanlarida ko'proq[10].

O'rta kattalikdagi QAP lar 1023 ta bo'lib, ular jami QAP larning 55 foizdan ortig'ini tashkil etadi. Bunday qishloqlarning mutloq soni bo'yicha Andijon viloyatida Jalaquduq (35 ta), Baliqchi (29 ta), Qo'rg'ontepa (23 ta), Bo'ston (22 ta), Izboskan (21 ta), Farg'ona viloyatida Uchko'prik (71 ta), Dang'ara (63 ta), Toshloq (53 ta), Beshariq (51 ta), O'zbekiston (51 ta), Namangan viloyatida Mingbuloq (36 ta), Uchqo'rg'on (32 ta), Kosonsoy (30 ta) tumanlari yetakchilik qiladi. Mazkur kattalikdagi qishloqlarning tumanlar jami QAP da ulushi Jalaquduq tumanida 74,5, Qo'shtepa tumanida 71, Uchqo'rg'on tumanida 74 foizni tashkil etadi.

Shuningdek, Farg'ona viloyatining barcha tumanlarida o'rta kattalikdagi QAPlarning ulushi 55-60 foizga to'g'ri keladi. Katta QAP lar soni 316 taga teng va ular mintaqada jami qishloqlarning 17,2 foizini o'zida mujassamlashtiradi. Bunday qishloqlar, xususan Andijon viloyatining Asaka tumanida 27 (tuman jami QAP dagi ulushi 55,1 foiz) ta, Xo'jaobod tumanida 16 (tuman jami QAP dagi ulushi 88,8 foiz) ta va Shahrixon tumanida 22 (tuman jami QAP dagi ulushi 44,9 foiz) tadir. Farg'ona viloyatining Toshloq (11 ta), Quva (10 ta), Namangan viloyatida Uychi (17 ta), To'raqo'rg'on (10 ta), Uchqo'rg'on (10 ta), Chust (9 ta) tumanlarida joylashgan.

2-jadval

Farg'ona vodiysi viloyatlari qishloq aholi punktlarining hududiy tarkibi (2025 yil 1 yanvar holatiga)

| № | Qishloq tumanlari | Qishloq aholi punktlari soni | Shu jumladan, aholi soniga ko'ra: | | | | | | | | | |
|----|-----------------------------------|------------------------------|-----------------------------------|------------|----------------|-------------|-----------------|-------------|-----------------|-------------|----------------------|-------------|
| | | | 500 kishigacha | | 500-1000 kishi | | 1000-3000 kishi | | 3000-5000 kishi | | 5000 va undan yuqori | |
| | | | jami | % | jami | % | jami | % | jami | % | jami | % |
| 1 | Quvasoy shahar kengashi | 30 | 1 | 3,4 | 11 | 36,6 | 18 | 60,0 | - | 0,0 | - | 0,0 |
| 2 | Oltiariq | 18 | 1 | 5,5 | - | 0,0 | 10 | 55,5 | 7 | 39,0 | - | 0,0 |
| 3 | Bog'dod | 59 | 5 | 8,5 | 13 | 22,0 | 35 | 59,3 | 6 | 10,2 | - | 0,0 |
| 4 | Beshariq | 96 | 13 | 13,5 | 22 | 23,0 | 51 | 53,1 | 7 | 7,2 | 3 | 3,2 |
| 5 | Buvayda | 88 | 12 | 13,6 | 25 | 28,4 | 46 | 52,3 | 5 | 5,7 | - | 0,0 |
| 6 | Dang'ara | 116 | 21 | 18,1 | 31 | 26,7 | 63 | 54,3 | 1 | 0,9 | - | 0,0 |
| 7 | Quva | 76 | 2 | 2,6 | 17 | 22,4 | 45 | 59,2 | 10 | 13,2 | 2 | 2,6 |
| 8 | Qo'shtepa | 62 | 2 | 3,2 | 10 | 16,1 | 44 | 71,0 | 6 | 9,7 | - | 0,0 |
| 9 | Rishton | 41 | 5 | 12,2 | 5 | 12,2 | 24 | 58,5 | 7 | 17,1 | - | 0,0 |
| 10 | So'x | 12 | - | 0,0 | 2 | 16,7 | 8 | 66,6 | 2 | 16,7 | - | 0,0 |
| 11 | Toshloq | 88 | 5 | 5,7 | 19 | 21,6 | 53 | 60,2 | 11 | 12,5 | - | 0,0 |
| 12 | O'zbekiston | 87 | 1 | 1,4 | 31 | 35,6 | 51 | 58,5 | 4 | 4,5 | - | 0,0 |
| 13 | Uchko'prik | 114 | 5 | 4,4 | 30 | 26,3 | 71 | 62,3 | 8 | 7,0 | - | 0,0 |
| 14 | Farg'ona | 27 | - | 0,0 | 2 | 7,4 | 18 | 66,6 | 4 | 14,8 | 3 | 11,2 |
| 15 | Furqat | 58 | 5 | 8,7 | 15 | 25,8 | 32 | 55,2 | 6 | 10,3 | - | 0,0 |
| 16 | Yozyovon | 28 | - | 0,0 | 14 | 50,0 | 10 | 35,7 | 4 | 14,3 | - | 0,0 |
| | Farg'ona viloyati bo'yicha | 1000 | 79 | 7,9 | 247 | 24,7 | 578 | 57,8 | 88 | 8,8 | 8 | 0,8 |
| 1 | Mingbuloq | 50 | - | - | 11 | 22,0 | 36 | 72,0 | 3 | 6,0 | - | - |
| 2 | Kosonsoy | 41 | - | - | 7 | 17,0 | 30 | 73,2 | 3 | 7,3 | 1 | 2,5 |
| 3 | Namangan | 36 | - | - | - | - | 25 | 69,4 | 7 | 19,4 | 4 | 11,2 |
| 4 | Norin | 35 | - | - | 3 | 8,5 | 24 | 68,5 | 7 | 20,0 | 1 | 3,0 |
| 5 | Pop | 47 | - | - | 12 | 25,5 | 27 | 57,4 | 5 | 10,6 | 3 | 6,5 |
| 6 | To'raqo'rg'on | 25 | - | - | - | - | 7 | 28,0 | 12 | 48,0 | 6 | 24,0 |
| 7 | Uychi | 39 | - | - | 2 | 5,1 | 20 | 51,3 | 17 | 43,6 | - | - |
| 8 | Uchqurg'on | 43 | - | - | 1 | 2,3 | 32 | 74,4 | 10 | 23,3 | - | - |
| 9 | Choptoq | 19 | - | - | - | - | 9 | 47,4 | 8 | 42,1 | 2 | 10,5 |
| 10 | Chust | 24 | - | - | - | - | 11 | 45,8 | 9 | 37,5 | 4 | 16,7 |
| 11 | Yangiqo'rg'on | 29 | - | - | 2 | 6,9 | 23 | 79,3 | 2 | 6,9 | 2 | 6,9 |
| | Namangan viloyati bo'yicha | 388 | - | - | 38 | 9,8 | 244 | 62,9 | 83 | 21,4 | 23 | 5,9 |
| 1 | Andijon | 18 | - | - | 3 | 16,7 | 5 | 27,8 | 4 | 22,2 | 6 | 33,3 |
| 2 | Asaka | 49 | - | - | - | - | 7 | 14,3 | 27 | 55,1 | 15 | 30,6 |
| 3 | Baliqchi | 44 | - | - | 1 | 2,3 | 29 | 65,9 | 9 | 20,4 | 5 | 11,4 |
| 4 | Buloqboshi | 19 | - | - | 3 | 15,8 | 8 | 42,1 | 6 | 31,6 | 2 | 10,5 |
| 5 | Bo'ston | 37 | 6 | 16,2 | 8 | 21,6 | 22 | 59,5 | 1 | 2,7 | - | - |
| 6 | Jalaquduq | 47 | - | - | 3 | 6,4 | 35 | 74,5 | 7 | 14,9 | 2 | 4,2 |
| 7 | Izboskan | 49 | 1 | 2,0 | 3 | 6,1 | 21 | 42,9 | 17 | 34,7 | 7 | 14,3 |
| 8 | Marhamat | 14 | 1 | 7,1 | 2 | 14,2 | 6 | 43,0 | 4 | 28,6 | 1 | 7,1 |
| 9 | Oltinko'l | 26 | 1 | 3,8 | 1 | 3,8 | 11 | 42,3 | 8 | 30,7 | 5 | 19,2 |
| 10 | Paxtaobod | 25 | - | - | - | - | 5 | 20,0 | 11 | 44,0 | 9 | 36,0 |
| 11 | Ulug'nor | 25 | 1 | 4,0 | 6 | 24,0 | 11 | 44,0 | 7 | 28,0 | - | - |
| 12 | Xo'jaobod | 18 | - | - | - | - | 2 | 11,2 | 16 | 88,8 | - | - |
| 13 | Shahrixon | 49 | 2 | 4,1 | 1 | 2,0 | 16 | 32,7 | 22 | 44,9 | 8 | 16,3 |
| 14 | Qo'rg'ontepa | 34 | - | - | - | - | 23 | 67,6 | 6 | 17,6 | 5 | 14,8 |
| | Andijon viloyati bo'yicha | 455 | 12 | 2,6 | 31 | 6,8 | 201 | 44,3 | 145 | 32,0 | 65 | 12,3 |
| | Umumiy jami | 1843 | 91 | 4,9 | 317 | 17,2 | 1023 | 55,5 | 316 | 17,2 | 96 | 5,2 |

Jadval O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Aholisi soni 5000 va undan ko'p bo'lgan yirik qishloqlar asosan Asaka (25 ta), Andijon (6 ta) va Paxtaobod (9 ta), Farg'ona (3 ta), To'raqo'rg'on (6 ta), Namangan (4 ta), Chust (4 ta) tumanlarida shakllangan. Umuman olganda, Asaka, Baliqchi, Izboskan, Shahrixon, Jalaquduq, Dang'ara, Uchko'prik, Beshariq, Toshloq, Buvayda, O'zbekiston, Mingbuloq, Pop, Uchqo'rg'on va Kosonsoy tumanlarini "ko'p qishloqli tumanlar" guruhiga, Andijon, Buloqboshi, Marhamat, Xo'jaobod, So'h, Oltiariq, Farg'ona, Yozyovon, Chortoq va Chust tumanlarini "kam qishloqli tumanlar" guruhiga kiritish mumkin.

Ma'lumki, qishloq joylarda aholining kundalik hayoti, mashg'uloti, ijtimoiy faoliyati shaharlarga nisbatan farqli jihatlariga ega. Shu bois, shaharlarga xos bo'lgan yashash tarzining asta sekin kuchayib borishi, uning vaqt mobaynida qishloq joylarga kirib borishi, qishloq urbanizatsiyasi (rurbanizatsiya)ning shakllanishiga sabab bo'ladi, shu bilan birga urbanizatsiya jarayonining sotsial geografik jihatlarini namoyon qiladi.

Zamonaviy urbanizatsiya global masshtabda o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, uning geografik jihatlarining ham mavjudligini ta'kidlash joiz. O'zbekiston Respublikasida urbanizatsiya jarayonining rivojlanishini ko'plab yangi

shaharchalarning paydo bo'lishi hamda mamlakat va viloyatlar urbanistik tarkibining o'zgarishi bilan bog'lash mumkin. Bunday vaziyat qishloq joylarda urbanizatsiya jarayonining dinamik tavsifga ega ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa va takliflar. Ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, mintaqa qishloq aholisining 78 foizi o'rta, katta va yirik qishloq aholi punktlarida istiqomat qiladi. Ularning aksariyat qismi o'rta (55,5 foiz), katta (17,2 foiz) qishloqlarda yashaydi. Demak, qishloq aholi punktlarining tasdiqlangan bosh rejalarini ishlab chiqish, ularning muhandislik-kommunikatsiya sharoitlarni yaxshilash talab etiladi.

Qishloq aholi punktlari orasida aholisi soni 10 ming, hatto 20 ming va undan ko'p bo'lgan qishloqlar ham mavjud. Jumladan, Paxtaobod tumanida Omonjo'ra (10,1 ming), Shahrixon tumanida Saroy (10,4 ming), Yangiyo'l (15,7 ming), Nazarmahram (14,1 ming), Qo'rg'ontepa tumanida Qo'rg'ontepa (14,0 ming), Buloqboshi tumanida Buloqboshi (20,6 ming), Nayman (10,0 ming), Namangan tumanida Xonobod (13,2 ming), Tepaqo'rg'on (12,8 ming), Farg'ona tumanida Kaptarxona (12,6 ming) kabi qishloqlar shakllangan. Kelgusida mazkur qishloqlarni shaharsozlik va urbanizatsiya talablariga muvofiq ravishda rivojlantirish, zarur bo'lsa, ularga shaharcha maqomini berish tavsiya etiladi.

Rivojlangan horijiy davlatlar tajribasidan ko'rish mumkinki, aholining yuqori darajadagi sotsial va hududiy mobilligi mamlakatlar rivojiga, aholining turmush darajasi ortishida katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham urbanizatsiya jarayonlarini jadallashirgan holda hududlarni kompleks rivojlantirish va qishloq aholisi uchun zarur bo'lgan turmush sharoitlarini yaratish muhim o'rin tutadi. Demak, qishloq joylarda aholining yashash sharoitini yaxshilash uchun urbanizatsiya siyosatini yanada takomillashtirish, qishloq aholi punktlarini istiqbolda shaharchalar toifasiga kiritish bo'yicha choralar ko'rish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 martdagi PF-5386-son «Obod qishloq» dasturi to'g'risida» gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/3604659>.
2. Atajonov Murodjon Maxmudovich, Isayev Akbarjon Abdulxamidovich Andijon viloyati qishloq aholi punktlari hududiy tarkibining shakllanishi. //Life Sciences and Agriculture. 2020. №2-2.URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/andizhon-viloyati-ishlo-a-oli-punktlari-hududiy-tarkibining-shakllanishi>.
3. Atajonov M.M. Andijon viloyati qishloq joylarida ijtimoiy infrastruktura tizimining hududiy tarkibini takomillashtirish. geogr. fan. falsafa doktori (PhD) ... diss. avtoref. – T., 2020. – 48 b.
4. Ahmadaliyev Yu., Abduvaliyev H. Farg'ona vodiysida aholi joylashuvini tadqiq etishda landshaft yondashuvining qo'llanilishi // O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti, 57-jild. –Toshkent, 2020. –B. 83-87 b.
5. Mahamadaliyev R. Toshkent viloyati qishloqlarining shakllanishi va rivojlanishi. G.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 1993. – 150 b.
6. Soliyev A.S., Bo'riyeva M.R va boshqalar. Qishloq joylar demografiyasi. – T., 2005. - 140 b.
7. Soliyev A.S., Nazarov M.I. O'zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi). – T.: Fan va texnologiya, 2009, - 212 b.
8. Tojiyeva Z.N. O'zbekiston aholisi: o'sishi va joylanishi. Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2010. – 276 b.
9. Qurbonov Sh. O'zbekiston qishloq tumanlari ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. -T.:Mumtoz so'z, 2019.-226 b.
10. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>.